

**ZAMONAVIY TIBBIYOTDA ETIKANING O'RNII: SHIFOKOR
KASBIY BURCHI VA BEMOR HUQUQLARI O'RTASIDAGI NOZIK
CHIZIQ**

¹Xabibullayeva Asal Davrboyjon qizi

¹Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi

Ilmiy rahbar:

²Umarova Farida Saidikromovna

²Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: ushbu maqolada tibbiy etikaning zamonaviy tibbiyotdagi ahamiyati, shifokor kasbiy burchi va bemor huquqlari o'rtasidagi muvozanat masalalari yoritilgan. Shuningdek, murakkab klinik holatlarda yuzaga keladigan axloqiy ziddiyatlar, bioetikaning asosiy tamoyillari va ularning amaliyotdagi qo'llanilishi tahlil qilingan. Tibbiy amaliyotda axloqiy qarorlarning asosli va huquqiy jihatdan to'g'ri qabul qilinishi sog'liqni saqlash tizimining insonparvarlik prinsiplariga asoslanishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: tibbiy etika, bioetika, shifokor burchi, bemor huquqlari, axloqiy tamoyillar, avtonomiya, zararsizlik, klinik qarorlar.

**МЕСТО ЭТИКИ В СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНЕ: ТОНКАЯ
ГРАНЬ МЕЖДУ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМ ДОЛГОМ ВРАЧА И
ПРАВАМИ ПАЦИЕНТА**

¹Хабибуллаева Асал Даврбойджон кизи

¹Студент Ташкентского государственного медицинского университета

Научный руководитель:

Умарова Фариди Саидикромовна

Кандидат филологических наук, доцент

Аннотация: в статье рассматривается значение медицинской этики в современной медицине, баланс между профессиональным долгом врача и правами пациента. В нем также анализируются этические конфликты, возникающие в сложных клинических ситуациях, основные

принципы биоэтики и их применение на практике. Принятие обоснованных и юридически корректных этических решений в медицинской практике гарантирует, что система здравоохранения основана на гуманных принципах.

Ключевые слова: медицинская этика, биоэтика, обязанность врача, права пациента, этические принципы, автономия, непричинение вреда, клинические решения.

THE PLACE OF ETHICS IN MODERN MEDICINE: A FINE LINE BETWEEN THE PROFESSIONAL DUTY OF A DOCTOR AND THE RIGHTS OF A PATIENT

¹Khabibullayeva Asal Davrboyjon kizi

¹Student of Tashkent State Medical University

Scientific supervisor:

¹Umarova Farida Saidikromovna

²Candidate of Philology, Associate Professor

***Abstract:** this article discusses the importance of medical ethics in modern medicine, the balance between the professional duty of a doctor and the rights of a patient. It also analyzes the ethical conflicts that arise in complex clinical situations, the basic principles of bioethics and their application in practice. The justified and legally correct adoption of ethical decisions in medical practice ensures that the healthcare system is based on the principles of humanism.*

***Keywords:** medical ethics, bioethics, doctor's duty, patient rights, ethical principles, autonomy, harmlessness, clinical decisions.*

KIRISH

Tibbiyot sohasi o‘z mohiyatiga ko‘ra inson hayotini saqlash, sog‘ligini tiklash va azob-uqubatini yengillashtirishga qaratilgan. Biroq bu maqsadlar yo‘lida amalga oshiriladigan har bir harakat axloqiy mezonlarga tayanishi zarur. Shu

nuqtai nazardan tibbiy etika — bu nafaqat ilmiy, balki axloqiy va huquqiy mezonlar uyg'unligini talab qiluvchi fan hisoblanadi. Shifokor faoliyatining axloqiy poydevori bemorga bo'lgan hurmat, rahm-shafqat, halollik va mas'uliyat bilan belgilanadi. Bioetika – bu tibbiyot, biologiya va texnologik taraqqiyot doirasida yuzaga keladigan axloqiy muammolarni o'rganadigan fan. U inson sha'ni, huquqlari va qadriyatlarini saqlagan holda zamonaviy tibbiyot amaliyotini yo'naltiradi. Etika bu falsafiy tushuncha bo'lib, yaxshilik va yomonlikni, to'g'rilik va noto'g'rilikni nazariy jihatdan o'rganadi, axloq esa jamiyatdagi amaliy normalar tizimidir. Demak, bioetika tibbiy faoliyatni nazariy-axloqiy va amaliy mezonlar bilan baholashga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Tibbiy etika va uning tarixiy asoslari:

Tibbiy etikaning ildizlari qadimiy Gippokrat qasamiga borib taqaladi. Unga ko'ra shifokor har doim bemor manfaatini birinchi o'ringa qo'yishi kerak. Keyinchalik o'rta asrlar va yangi davrda bu qoidalar diniy, ma'naviy va kasbiy nuqtai nazardan boyitilgan. XX asrning ikkinchi yarmida "bioetika" tushunchasi paydo bo'ldi, u tibbiy faoliyatda qaror qabul qilishda inson huquqlari va axloqiy tamoyillarni birlashtirishga xizmat qiladi.¹

Shifokor kasbiy bilim va tajriba asosida bemorning sog'lig'i uchun eng optimal qarorni tanlaydi. Aynan shu nuqtada shifokor burchi va bemor huquqlari o'rtasida muvozanatni saqlash muhim bo'ladi. Zamonaviy klinik amaliyotda shifokorlar bioetik muammolarga tobora ko'proq duch kelmoqdalar. Ayniqsa, reanimatsion yordam, hayotni sun'iy usulda uzaytirish, organi ko'chirish, abort,

¹ Beauchamp TL, Childress JF. Principles of Biomedical Ethics. 7th ed. Oxford University Press; 2013.

evtanaziya, klonlash va genetik muolajalar kabi masalalar axloqiy qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, O‘zbekiston sharoitida tibbiy muassasalarda bemorning roziligisiz invaziv muolajalar bajarilishi holatlari uchrab turadi. Bu esa bemor huquqlarining buzilishi bilan birga, axloqiy me’yorlarga zid holatdir. Shuningdek, palliativ yordamda bemorning azobini kamaytirish uchun kuchli analgetik vositalarni qo‘llashda “hayotni qisqartirish” xavfi bioetik muammoni yuzaga keltiradi. Yana bir dolzarb masala – bemor axborotdan xabardor holda roziligi (informatsiyalangan rozilik)dir. Tibbiy muolaja oldidan bemor barcha xavf va oqibatlardan xabardor qilinganmi? Bu jihatlar bioetik me’yorlar asosida hujjatlashtirilishi zarur. Shifokor – bemor – qarindoshlar o‘rtasidagi kommunikatsiya madaniyati bioetikaning amaliy samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Jahon tajribasida bioetik masalalarni hal qilishda bioetika komissiyalari, klinik etik kengashlar faol ishtirok etmoqda. Ular bahsli klinik holatlarda mustaqil axloqiy-huquqiy baho beradilar. Bu tajriba O‘zbekistonda ham keng joriy etilishi zarur.

1. Reanimatsiya va sun’iy hayotni qo‘llab-quvvatlash: terminal bosqichdagi bemorlarda muolajani davom ettirish yoki to‘xtatish masalasi axloqiy ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Bunday vaziyatlarda shifokorlar hayotni sun’iy usullar bilan uzaytirish imkoniyatiga ega bo‘lsalar-da, bu har doim ham bemor manfaatlariga to‘g‘ri kelavermaydi. Masalan, uzoq muddatli komatoz holatdagi yoki qayta tiklanmaydigan nevrologik zararlanishlar bilan kechayotgan bemorlar holatida hayotni davom ettirish jarayoni nafaqat iqtisodiy va psixologik yuk bo‘lib qoladi, balki inson qadr-qimmatiga zid deb baholanadi. Axloqiy jihatdan shifokorlar “hayotni saqlab qolish” burchi bilan “bemorga zarar yetkazmaslik”

tamoyili o'rtasida muvozanat topishi kerak bo'ladi. Ko'pincha bunday hollarda bemorning o'zi ilgari bildirgan roziligi (advance directive) yoki oila a'zolarining qaroriga tayaniladi. Shuningdek, e'tiqod, madaniy an'analar va milliy qonunchilik ham bu qarorlarning asosiy omillaridan biridir. Bunday holatlarda asosiy savol quyidagicha bo'ladi: "Sun'iy hayotiy funksiyalarni qo'llab-quvvatlash "haqiqiy hayot"ni anglatadimi yoki bu shunchaki biologik mavjudlikni uzaytirishmi?" Bioetika aynan shu masalada shifokorga nafaqat ilmiy, balki axloqiy pozitsiyada turishga yordam beradi. Shu sababli, reanimatsiya va intensiv terapiyada etik konsiliumlar va shaffof qaror qabul qilish mexanizmlari alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

2. Abort va reproduktiv huquqlar: ayolning tanlov huquqi va homila hayoti o'rtasida axloqiy, diniy va ijtimoiy muammolar bo'ladi. Bu masala, ayniqsa, homiladorlikni ixtiyoriy to'xtatish (elektiv abort) holatlarida yanada keskin tus oladi. Bioetik nuqtai nazardan bu qaror ayolning o'z tanasi ustidan egalik qilish huquqi (avtonomiya) va tug'ilmagan homilaning yashash huquqi o'rtasida nozik muvozanatni taqozo etadi. Diniy qarashlarda abort ko'pincha gunoh deb baholansa, zamonaviy huquqiy tizimlarda esa bu ayolning reproduktiv huquqi sifatida tan olingan. Shifokorlar ushbu qarorlarni hurmat qilishi lozim, biroq ular axloqiy jihatdan o'z e'tiqodiga qarshi bo'lgan tibbiy aralashuvlarni rad etish huquqiga ham ega. Bu holatda bemor huquqlari va shifokor vijdon erkinligi o'rtasida etik to'qnashuv vujudga keladi. Ayniqsa, homiladorlik tibbiy sabab bilan xavf ostida bo'lsa (masalan, homilada og'ir nuqsonlar aniqlanganda yoki ona hayoti xavf ostida bo'lsa), abort ko'pincha zarurat deb baholanadi.² Biroq, faqat ijtimoiy yoki

² Gillon R. Medical ethics: four principles plus attention to scope. BMJ. 1994;309(6948):184-188.

shaxsiy sabablarga ko'ra amalga oshiriladigan abortlar atrofida doimo jamoaviy munozaralar mavjud bo'lib qoladi. Shu boisdan, abort bilan bog'liq masalalarda shifokor tibbiy mezonlar bilan birga axloqiy, huquqiy va madaniy jihatlarni ham e'tiborga olishi zarur. Bemorga to'liq va xolis ma'lumot berish, uning qaroriga bosim o'tkazmasdan maslahat berish — bioetikaning ajralmas qismidir.

3. Organ transplantatsiyasi: donorlik roziligi va organlar taqsimoti — bu sohada adolat va inson huquqlari alohida e'tibor talab qiladi. Organ transplantatsiyasi inson hayotini saqlab qolish va sog'ligini tiklashda beqiyos imkoniyatlar yaratadi, biroq bu jarayon murakkab bioetik masalalarni yuzaga keltiradi. Avvalo, donorning roziligi — ya'ni tirik donorning ongli va erkin qarori yoki vafot etgan shaxsning hayotlik paytidagi yozma roziligi — asosiy axloqiy shart hisoblanadi. Rozilik majburiyati insonning tanasi va huquqlari ustidan egalik qilish tamoyiliga asoslanadi.

Ko'plab mamlakatlarda organ donorligining ikki asosiy tizimi mavjud:

"Opt-in" tizimi — odam faqat rozilik bildirsa, donor sifatida qaraladi.

"Opt-out" tizimi — har kim avtomatik donor hisoblanadi, agar oldindan rad etmagan bo'lsa. Bu tizimlar orasidagi farq, axloqiy jihatdan, insonning tanlash huquqi va davlat aralashuvi chegarasini belgilab beradi. Ayniqsa, "opt-out" tizimining adolatli ishlashi uchun jamoaviy ishonch va axborot ochiqligi muhim ahamiyatga ega. Organlar taqsimotida esa asosiy axloqiy prinsip — adolat tamoyilidir. Transplantatsiya qilishda navbat tizimi, bemorning klinik holati, yashash imkoniyati va ehtiyoj darajasi kabi mezonlar asosida qaror qabul qilinadi. Ammo, resurslarning cheklanganligi va noto'g'ri boshqaruv natijasida ba'zi hollarda korrupsiya, tanish-bilishchilik yoki ijtimoiy mavqega qarab ustunlik

berish holatlari yuzaga kelishi mumkin. Bu esa bioetikaning adolat, tenglik va shaffoflik kabi asosiy tamoyillariga ziddir. Shuningdek, organ savdosi va inson a'zolarining noqonuniy aylanmasi global miqyosda dolzarb muammolardan biri bo'lib, u inson huquqlari buzilishiga olib keladi. Shu bois, transplantatsiya sohasida qat'iy qonunchilik, xalqaro hamkorlik va etik standartlarga rioya qilish zarur.³

4. Klinik tadqiqotlar va eksperimentlar: tadqiqotlarda qatnashuvchi bemorlarning roziligi, xavf-xatarni tushunish darajasi va manfaat muvozanati — asosiy axloqiy savollardir. Klinik tadqiqotlar, ayniqsa yangi dorilar, muolajalar yoki texnologiyalarni sinovdan o'tkazishda bemorlar yoki sog'lom ko'ngillilarning ishtirokini talab qiladi. Ammo bu ishtirok faqat ularning to'liq, ongli va erkin roziligi asosida amalga oshirilishi lozim. Bemorga tadqiqotning maqsadi, davomiyligi, kutilayotgan foyda va ehtimoliy xavflar ochiq va tushunarli tilda tushuntirilishi kerak. Ongli rozilik (informed consent) — bu faqat imzo emas, balki bemorning to'liq axborot asosida mustaqil qaror qabul qilishidir. Ba'zan bemorlar shifokorga mutlaq ishonib, tafsilotlarni chuqur tushunmasdan rozilik beradi. Bu esa bioetika nuqtai nazaridan xavfli holat hisoblanadi.⁴ Shu sababli, tadqiqot etik komissiyasi har bir ishtirokchining rozilik jarayonini sinchkovlik bilan nazorat qilishi kerak. Bundan tashqari, klinik tadqiqotlar ko'pincha xavf va foyda muvozanatiga asoslanadi. Ishtirokchilarga mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlar haqida oldindan ma'lumot berilishi lozim. Ba'zi hollarda, ayniqsa yangi preparatlar sinovida, bemorlar hayoti xavf ostida qolishi mumkin. Shunday hollarda

³ Andorno R. Human dignity and human rights as a common ground for a global bioethics. J Med Philos. 2009;34(3):223–240.

⁴ U.R. Ismoilov. Tibbiy huquq va etika asoslari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi SSV nashriyoti, 2020.

shifokorlar bemorning sog'lig'ini himoya qilish va ilmiy manfaat o'rtasida axloqiy tanlov qilishadi. Yana bir muhim jihat — ishtirokchilarning ijtimoiy zaif toifalarga mansubligi. Masalan, kambag'al yoki savodsiz bemorlar, bolalar, ruhiy kasallar va qariyalar ustida olib boriladigan tadqiqotlar alohida etik nazoratni talab qiladi. Ular ekspluatatsiya qurboni bo'lishi mumkin.

XULOSA

Bioetika – bu nafaqat nazariy kontsepsiya, balki amaliy tibbiy faoliyatda har bir qarorning ajralmas qismi bo'lishi kerak. Shifokorlar, tibbiy xodimlar va talabalarda axloqiy savodxonlikni oshirish uchun doimiy ta'lim va bioetika fanini o'qitish muhim. Har bir klinik qarorda nafaqat ilmiy asos, balki axloqiy mezonlar ham inobatga olinmog'i lozim.

Tavsiya etiladigan chora-tadbirlar:

1. Bioetika bo'yicha doimiy seminar va treninglar tashkil etish.
2. Klinik etik komissiyalar faoliyatini har bir tibbiy muassasada yo'lga qo'yish.
3. Har bir invaziv tibbiy amaliyot uchun bemor roziligining huquqiy jihatdan to'liq rasmiylashtirilishini nazorat qilish.
4. Talabalar va yosh shifokorlar uchun "Klinik etika" fanini alohida modul sifatida kiritish.

Tibbiy amaliyotdagi har bir qaror shifokorning nafaqat kasbiy, balki axloqiy malakasiga ham bog'liq. Bugungi tibbiyotda bemor bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot, og'ir klinik qarorlar, innovatsion texnologiyalar va cheklangan resurslar fonida bioetika — zamonaviy tibbiy faoliyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bioetika tamoyillari nafaqat shifokor va bemor o'rtasidagi ishonchni

mustahkamlaydi, balki sog‘liqni saqlash tizimining ijtimoiy adolatga, inson qadr-qimmatini hurmat qilishga va huquqiy javobgarlikka asoslanganligini ta’minlaydi. Shifokorlar faqat davolovchi emas, balki insoniy qadriyatlarni qadrllovchi, axloqiy javobgarlikni his qiluvchi mutaxassis bo‘lishi lozim. Tibbiy etikani chuqur o‘zlashtirgan mutaxassis bemorlar bilan muloqotda empatiya, halollik va odil qaror qabul qilishga asoslangan yondashuvni qo‘llaydi. Shu bois, tibbiy etika fan sifatida nafaqat tibbiyot ta’limida, balki kasbiy rivojlanishda ham yetakchi o‘rin tutishi, uzluksiz o‘rganilishi va amaliyotga tatbiq etilishi zarur. Zamonaviy tibbiyotda texnologiyalar qanday rivojlanmasin, uning markazida har doim inson turadi. Insonparvarlik, adolat va axloqiy mas’uliyat — bu tibbiyotning asosiy tayanchlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Beauchamp TL, Childress JF. Principles of Biomedical Ethics. 7th ed. Oxford University Press; 2013.
2. Gillon R. Medical ethics: four principles plus attention to scope. BMJ. 1994;309(6948):184–188.
3. Andorno R. Human dignity and human rights as a common ground for a global bioethics. J Med Philos. 2009;34(3):223–240.
4. U.R. Ismoilov. Tibbiy huquq va etika asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi SSV nashriyoti, 2020.